

80

3-iyul holatiga ko'ra, Wikipediya o'zbekcha maqolalar 150 000 tadan oshdi.

O'zbekcha maqolalar:  
150 082 ta

Turkiy tillar orasida:  
6-o'rin

Barcha tillar orasida:  
58-o'rin

# YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK  
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 45 (16498)  
2022-yil, 6-iyul  
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

**Yoshlar siyosati**  
3-bet

Intiluvchan yoshlar  
rag'batlantirilmoqda

**Nigoh**  
4-bet

Yoshlar axborot  
qurboniga aylanishi mumkin

**Tashabbus**  
5-bet

Ramazanning sartaorshxonasida  
kitob o'qiganga chegirma bor




## TALABA, YOZNI QANDAY O'TKAZYAPSAN?

Yoz – o'quv yili davrida qilingan ishlarni, bilimlarni  
sarhisob qiladigan va kimlar uchundir miriqib dam oladigan payt.  
Talabalarning yoz fasli uchun tuzgan rejalari bilan qiziqamiz.

batafsil  
6-bet

# QORAQALPOG'ISTON VOQEALARI

## XALQARO HAMJAMIYAT NIGOHIDA



qodirdir", deya ta'kidladi.

Yevropa kengashi Prezidenti Sharl Mishel bilan muloqotda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Yevrokengash

Prezidenti O'zbekistonning kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish sari ochiq islohotlar yo'lini davom ettirish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatladi. Qoraqalpog'istondagi vaziyatning ba'zi buzgunchi kuchlar tomonidan izdan chiqarilishiga yo'l qo'yib bo'lmasiligi alohida qayd etildi.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish taklifi ortidan Qoraqalpog'istonda ro'y bergan voqealarni ochiq va mustaqil tergov qilishga chaqirdi. "Biz qurbonlar borligidan chuvqor afsusdamiz va voqealar rivojini yaqindan kuzatishda davom etamiz. Biz taklif etilgan konstitutsiyaviy o'zgarishlarga nisbatan jamoatchilik xavotirlariga prezident Mirziyoyev tomonidan tezkor reaksiya bildirilganini olqishlaymiz. Barcha tomonlarni nizo keskinlashishi va zo'ronliklar davom etishining oldini olish maqsadida o'z harakatlari da vazminlikka chorlaymiz", deyildi Yevropa kengashi saytida.

**Shahruza SATTOROVA,**  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

“  
NUKUS SHAHRIDAGI  
OMMAVIY TARTIBSIZLIKLAR  
OQIBATIDA 243 NAFAR SHAXSGA,  
JUMLADAN, 38 NAFAR HUQUQ-  
TARTIBOT ORGANLARI  
XODIMLARIGA TURLI  
TAN JAROHATLARI  
YETKAZILGAN.

Shu kunlarda Qoraqalpog'istonda sodir bo'lgan voqealardan xabardorsiz Albatta, davlatimiz rahbarining murojaatlaridan keyin vaziyat barqarorlashdi, hayot o'z maromiga qaytmoqda.

Afsuski, Nukus shahridagi ommaviy tartibsizliklar oqibatida 243 nafar shaxs, jumladan, 38 nafar huquq-tartibot organlari xodimlariga turli tan jarohatlari yetkazilgan, og'ir tan jarohatlari tufayli 18 nafar fuqaro vafot etgan.

Milliy gvardiya qo'mondoni, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududining komendanti Rustam Jo'rayevning ta'kidlashicha, Qoraqalpog'istondagi voqealar paytida 14 nafar fuqaro tartibsizliklar sodir bo'lgan joyda vafot etgan, ulardan 13 nafari alkogol va giyohvand moddalar ta'sirida bo'lgan. 4 nafar halok bo'lgan shaxslar xizmat burchini bajargan huquq-tartibot organlari xodimlaridir.

Fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonuniylik va huquq-tartibotni tiklash maqsadida Prezident farmoni bilan Qoraqalpog'iston Res-

publikasi hududida 2022-yil 3-iyul kuni soat 00:01 dan 2022-yil 2-avgust kuni soat 00:00 ga qadar bo'lgan davrda favqulodda holat joriy etildi.

3-iyul kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Nukus shahrida bo'lib, tuman hokimlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlariga fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash bo'yicha murojaat bilan chiqdi. Shuningdek, davlatimiz rahbari Nukus shahridagi "Jeketerak" mahallasi, Nukus tumanidagi "Samanbay" ovul fuqarolar yig'inda bo'lib, xalq bilan muloqot qildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesinde deputatlar, faxriy va faollar bilan uchrashuv o'tkazib, vatandoshlarimiz va Jo'qorg'i Kenges deputatlariga murojaat qildi.

Qo'shni davlatlar rahbarlari O'zbekiston rahbariyatining Qoraqalpog'istondagi barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan qarorlarining o'z vaqtida bo'lganini va ularni qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Jumladan, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston prezidentlari bilan telefon orqali muloqotda ular davlatimiz

rahbarining Qoraqalpog'iston Respublikasida barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Do'stlik, yaxshi qo'shniçilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari mustahkamlash masalalari-ga alohida e'tibor qaratildi.

Rossiya tarafi esa O'zbekistonda sodir bo'layotgan hamma narsa shu davlatning ichki ishi ekanligini ta'kidlab, respublika rahbariyatining faol harakatlari bilan mavjud muammolar hal qilinishiga ishonch bildirdi. Xitoy tashqi ishlar vazirligi vaziyatni izohlar ekan, "O'zbekistonning do'st qo'shnisi va keng qamrovli strategik hamkori sifatida Xitoy O'zbekiston hukumatining milliy osoyishtalikni ta'minlash borasidagi harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Xitoy tomoni shunga aminki, Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi O'zbekiston mamlakatda osoyishtalik va birlikni saqlashga

## ADOLAT TOMIRLARI MANGU TUTASH

**Ibrohim G'AFUROV,**  
O'zbekiston Qahramoni.



foto: Ahmad TO'RA

O'zbek va qoraqalpoq xalqlari yer yuzidagi eng qadimiy, madaniy xalqlar qatoriga kiradi. Ularni insoniyat tarixining otasi Gerodot o'z tarix kitoblarida bayon qilib ketgan va yer yuziga tanitgan. O'sha so'zlar yillarga o'g'ini, qavm-qarindosh bo'lib yonma-yon yashagan jigar xalqlarmiz. Ulug' daryolardan birga obiha-yot - tiriklik suvini ichganmiz, yurtimizni obod, farovon, shon-u sharafli qilib tiklaganmiz.

Tomirlarimiz ajralmas bo'lib tutashib yotibdi. Har ikki xalqning ham qudrati va toleyi mana shunda. Tengga teng qandoq yashasak, shundoq muhabbatli jigar kabi yashab kelmoqdamiz. Tarixlar quridik, zamon talafotlaridan omon chiqdik, ne-ne bosqinchilarga zarbalar berdik. El-yurtimizni ko'z qarog'idek omon saqlab keldik. Nasllarimizga obod, farovon kelajagi yorqin yurtimizni meros qilib qoldirish eng oliyanob va eng ulug' ilg'or milliy niyat a'molimiz, maqsadimizdir.

Qoraqalpoq jigarim, sening orzularing, sening jozibador san'ating, sening shoirona so'zlaring do'stligimiz qaradshligimizning mustahkamligidir. Do'stlikka intilgan, do'stlikni ulug'lagan, do'stlikni hayotining biridan-bir maqsadi a'moli deb bilgan xalq hech qachon to'g'ri yo'ldan toymaydi.

Qoraqalpoq jigarim, do'stlikni ulug'lagan, alqagan so'zlaring, mening jonimda va har bir o'zbekning yuragidan o'rin topgandir. Biz o'lmas ijmon bilan tug'ishgan, tutashgan xalqlarmiz. Shu yurtlarda gulab yashaymiz. Shu cho'llarda bepoyon Turon, Turkiston va Qoraqalpog'istonimizda yurt egasi bo'lib javlon urmog'ga har birimizning haqqimiz bor.

Tarix yo'llaridan yelkama-yelka borar ekanmiz, bugun yelkalarimizning kuch-qudratini har qanchog'idan ko'ra kuchliroq, ishonchliroq sezmoq-

damiz. G'alamislar, xalqlar kazzoblar, ig'vog'arlar, yo'q yerlardan nizo chiqaradigan qabihlar hech qachon o'zlarining maqsadlariga yetmagaylar.

Ularning bo'htonlariga qaramasdan biz abadiy birgamiz. Bizni yengadigan kuch yo'q. Ig'vog'arlar, nizog'arlar faqat qonxo'rlik va talotumlarini istaydilar. Begunohdan-begunoh odamlarni qurbon qilishdan toymaydilar. Ammo bu yo'llar tarixda ham sarob bo'lgan edi, hozir ham sarob va kelajakda ham sarobdir.

Xo'p, Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasida ekan, har qancha fikr bo'lsa ayt-ingiz. Diskussiyasiga qo'shilingiz. Konstitutsiyaning odil umum O'zbekiston xalqi uchun manfaatli qonun-qoidalar bilan boyib borishiga o'z xizmatlaringizni ayamay sarflasangiz. Chunki haqiqat faqat adolatli bahslar, munozaralarda yuzaga chiqadi. Hozir aq-ldrok va matonatni zarracha yo'qotmaslik haqida gap bormoqda. Bizning bunga ishonchimiz to'la va tom. Ortiqcha ehtiroslarga berilish, tinch-farovon yurtda to'zon ko'tarish hech qachon ijobiy natijalarga olib kelmas!

Biz o'zbeklar va qoraqalpoqlar hamisha birgamiz! Tarix va tabiat buni ma'rifatli xalqlarimiz-ga meros qilib qoldirgan.

O'ZA

## INTILUVCHAN YOSHLAR RAG‘BATLANTIRILMOQDA



**Xusen TO‘XIYAYEV,**  
Yoshlar ishlari agentligining  
Samarqand viloyati boshqarmasi  
boshlig‘i



Samarqand viloyatida yoshlar 2 million 314 ming 93 nafarni tashkil etadi. Shundan 533 ming 498 nafari 6 yoshgacha, 634 ming 756 nafari 7–15 yoshgacha, 863 ming 239 nafari 16–30 yoshgacha bo‘lgan fuqarolardir.

O‘tgan vaqt davomida “Yoshlar daftari” va “Yoshlar dasturlari”-ning amalga oshirilishi natijasida bu yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishiga zamin yaratilmoqda.

### FAOL YETAKCHILAR MUKOFOTLANDI

Yoshlar yetakchilariga faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Faoliyatini samarali tashkil etayotgan, o‘zining shaxsiy fazilatlarini bilan yoshlarga namuna bo‘layotgan yetakchilarni “Yangi O‘zbekiston islohotchisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash, oylik ish haqining 50 foizigacha bo‘lgan miqdorda mukofotlash, milliy kadrlar zaxirasiga kiritish, boshqa hududlardan kelib ishlayotgan yetakchi uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha bo‘lgan miqdorda turar joy ijara to‘lovi qoplab berilishi yoki yil yakuni bo‘yicha o‘ziga birlashtirilgan hududda yuqori natijalarga erishgan yetakchilarga ipoteka krediti asosida sotib olinayotgan uy-joy qiymatining 50 foizidan yuqori bo‘lmagan miqdorda subsidiya berish kabi bir qator imtiyozlar belgilab qo‘yildi.

Shu imtiyozlar doirasida viloyat bo‘ylab 16 ta yetakchi “Eng faol yoshlar yetakchisi” nomnatsiyasi bo‘yicha taqdirlandi. Masalan, Samarqand shahridagi Ahmad Yassaviy mahallasi yoshlar yetakchisi Shodmon Umarov, Ishitxon tumanidagi G‘afur G‘ulom mahallasi yoshlar yetakchisi Akbar Xidirov kabi fidoyi yoshlar maxsus sertifikat, televizor hamda esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.

### “PAYFLY.UZ”

Samarqand viloyati hokimligi hamda Yoshlar ishlari agentligi Samarqand viloyati boshqarmasi o‘rtasida “Samarqand viloyati yoshlarining startap loyihalari hamda innovatsion g‘oyalari qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori imzolangan. Unga ko‘ra, 1 milliard so‘m mablag‘ ajratilib, startap loyihalar bazasini to‘plash hamda saralash, qo‘llab-quvvatlash maqsadida mas‘ul tashkilot va mutaxassislar bilan birgalikda inkubatsiya va akseleratsiya dasturiga start berilgan.

Dastur asosida moliyalashtirilgan loyihalardan biri “Payfly.uz” alohida e‘tiborga sazovor. Loyiha Samarqand shahrida yashovchi Muhammad Aziz Ahmedjanovga tegishli. Uni moliyalashtirish uchun 44 million so‘m ajratildi. Loyiha orqali sayyohlarga aviabiletlar va sayohat sug‘urtalarini oldindan bronlash platformasi yo‘lga qo‘yilib, viloyatda yangi onlayn xizmat tashkil qilindi.

Bundan tashqari, Sultona Isrofilovaga “DietCake” (Diyetkeyk) loyihasi uchun 24 million so‘m ajratildi. Natijada qandli diabet bilan kasallangan bemorlar hamda qandli diabetning oldini olish, sportchilar va parhezidagi insonlar uchun shirinliklar ishlab chiqarish va uni buyurtma orqali yetkazib berish xizmati yo‘lga qo‘yildi.

Dastur doirasida yana o‘ndan ortiq yoshlarning innovatsion g‘oyalari qo‘llab-quvvatlanib, mablag‘ ajratildi. Endilikda bu ishlarni doimiy ravishda davom ettiramiz.

# 177

## IMKONIYAT



## YOSHLAR ITTIFOQI FAOLLARIGA IMTIYOZ

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-noyabrda “O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faol a‘zolariga oliy ta‘lim muassasalariga kirishda imtiyozlar berish to‘g‘risida”gi 914-son qarori bilan Yoshlar ittifoqining faol a‘zolari uchun oliy ta‘lim muassasalariga imtiyozli qabul qilish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, tavsiyanomalar ittifoq tizimidagi sardorlarga, boshlang‘ich tashkilotlardagi yo‘nalish yetakchilariga, ikki yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan fidoyi yoshlarga beriladi.

Tavsiyanomalariga ega bo‘lgan yoshlar O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi qaroriga asosan, doimiy yashash joyidagi oliy ta‘lim muassasalarining pedagogika ta‘lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari test sinovlarisiz va kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz davlat grantlari asosida qabul qilinadi.

Tavsiyanomalar soni cheklangan bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan bir nafardan – jami 14 nafar yoshlariga taqdim etiladi.



### Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Nomzodlar quyidagi toifalar bo‘yicha tavsiyanomaga ega bo‘lishi mumkin:

- Yoshlar ittifoqi sardorlari;
- Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti yo‘nalish yetakchilari;
- Yoshlar ittifoqi tizimida ikki yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan fidoyi yoshlar.

Tavsiyanoma faqat taqdim etilgan yil uchun amal qiladi, lekin O‘zbekistonda joylashgan xorijiy oliy ta‘lim muassasalariga tatbiq etilmaydi.

Tanlovlarni o‘tkazish bo‘yicha tuman (shahar) va hududiy komissiyalar faoliyati respublika komissiyasi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Nomzod tanlovlarda ishtirok etish uchun o‘z hududidagi tuman (shahar) komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- tuman (shahar) komissiyasi raisi nomiga ariza;
- umumiy o‘rta ta‘lim (11-sinf negizida) yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasasini tugatganligi haqidagi hujjat hamda baholar ko‘rsatilgan ilovaning nusxalari;
- ta‘lim muassasasi bitiruvchi o‘quvchi ekanligi to‘g‘risida ma‘lumotnoma (ma‘lumotnomada oxirgi ikki yilda fanlardan olgan baholari ko‘rsatiladi);
- mehnat daftarchasining nusxasi (ish staji mavjud bo‘lsa);
- Yoshlar ittifoqi tizimida erishgan natijalarini tasdiqlovchi hujjatlar (diplom, sertifikat, faxriy yorliq va boshqa hujjatlar) nusxalari.

Hududiy komissiya har yili 30-aprelgacha tegishli tuman (shahar) komissiyalari tomonidan yuborilgan nomzodlar orasidan eng munosiblarini tanlash uchun respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash tartibiga muvofiq tanlov o‘tkazadi va jami 3 nafar g‘olib nomzod hujjatlarini tanlov yakunlangandan so‘ng ikki kun ichida respublika komissiyasiga yuboradi.

Respublika komissiyasi tanlov natijalariga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan bir nafardan (jami 14 nafar) eng munosib yoshlar ro‘yxatini tasdiqlaydi hamda 10 kun muddatda O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasiga taqdimnoma kiritadi.

## YOSHLAR AXBOROT QURBONIGA AYLANISHI MUMKIN



**G**lobal axborot makoniga teran ko'z bilan qarasa, unda mavjud barcha axborotni ham foydali va beziyon deb bo'lmaydi. Xususan, ayni paytda internet tarmog'ida o'z joniga qasd qilishga undovchi to'qqiz ming, axloqsizlikni targ'ib etuvchi to'rt mingdan ziyod sayt, zo'ravonlik va yovuzlik ruhidagi kompyuter o'yinlari borki, ular milliy qadriyatlarimizga zid va yosh avlod tarbiyasiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas. Bu esa internet tarmog'ida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotidan dalolatdir.

Ko'pincha yosh avlod axborot xurujining birinchi navbatdagi nishoniga aylanadi. Negaki ularning axborot va kompyuter texnologiyalariga, jahon axborot makoniga qiziqishi juda yuqori. Ular uchun internet o'yin-kulgining asosiy manbalaridan biridir. Forum, blog, ICQ, chat, onlayn flesh o'yinlar yoshlar uchun ko'ngilochar faoliyatning asosiy turlari hisoblanadi.

Qalaversa, ko'p hayotiy tajribaga ega bo'lmagan o'smirlar uchun ma'lumotni baholash va tanlash qiyin. O'smirlarga yetib boruvchi ma'lumotlar tajovuzkor bo'lib, umuminsoniy qadriyatlarini emas, zo'ravonlik va yovuzlikni o'rgatadi. Shu bois shaxsning media kompetensiyasini shakllantirish va uni insonning butun hayoti davomida rivojlantirish zarurati tug'ilmoqda.

Bugungi kunda yoshlarimizda axborot olish madaniyatini shakllantirish, ularni g'oyaviy-mafkuraviy tajovuzlardan himoyalash tizimlarini takomillashtirish muhim masaladir. Xususan, yoshlarda internet tarmog'idan foydalanganda madaniyat va axloq me'yorlariga rioya qilish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, xususan, internet

tarmog'iga axborotni joylashtirish, tarqatish, izlash, foydalanish kabi xususiyatlarni o'z ichiga olgan axborot xavfsizligi va internet madaniyatini mukammal o'zlashtirishlarini hamda bu boradagi tegishli huquqiy va tashkiliy tavsiyalarni yanada takomillashtirish kerak.

Mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni qariyb 15 millionga yetdi. Internetning o'tkazuvchanlik darajasi 4 barobar oshirilib, tarmoqqa ulanish tezligi 1,5 marta ortdi. Buning natijasida mamlakatimizda aholi, ayniqsa, yoshlarning axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati kengaymoqda. Ta'lim sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilayotgani e'tiborga molik. Bu navqiron avlodga jahon andozalari darajasida ta'lim berish, ularni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalashda muhim omil bo'lmoqda.

Albatta, mamlakatimizda bu kabi salbiy omillarning oldini olish choralari ko'rilmog'ida. Milliy an'ana va qadriyatlarimizga yot, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi behayo, inson organizmining jismoniy yoki ruhiy holatini buzish ehtimoli bo'lgan materiallarni tarqatuvchi veb-saytlardan foydalanish, izlash holatlari aniqlandi va ushbu veb-resurslarga kirish chegaralab qo'yildi.

Ammo bugun internetni cheklab qo'yish yoki axborot olishni taqiqlash bilan muammo hal bo'lmisligi barchamizga ayon. Shunday ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini saqlash oldimizda turgan eng muhim masalalardan biridir.

**Jahongir ISMOILOV,**

Bosh prokuratura boshqarma katta prokurori

# “KITOB ZULMATNI YORITADI”, – deydi Shamshoda HAMDAMOVA

**O**damga butun hayoti davomida kerak bo'ladigan, dunyoqarashini o'zgartiradigan, zehnni teranlashtiradigan narsa, shubhasiz, kitobdir. Sog'lom odamlar chiroq yo'q paytda kitob o'qiy olmasligi mumkin. “Ammo bizga buning ahamiyati yo'q. Shu jihatimiz bilan ulardan ustun turamiz”, deb so'z boshlagan Shamshoda Hamdamova boshqalarga o'rnak bo'la oladigan yoshlardan biri.

U 1996-yil 6-oktabrda Buxoro viloyati Qorako'l tumanida tug'ilgan. “Yosh kitobxon”, Zomin seminari, “Mushoira” ko'rik-tanlovlari qatnashchisi. “Yosh kitobxon” tanlovining respublika bosqichida qatnashib, kitob o'qish, g'olib bo'lish uchun qalb ko'zi ochiq bo'lishi yetarli degan fikrni isbotlab, ketma-ket ikki yil 2-o'rinni oldi.

Shamshoda ba'zi sog'lom odamlarning sabri yetmaydigan audio kitoblarni tinglab, tanlovda qatnashdi. Inson mehr-oqibatni avvalo o'z ota-onasidan o'rganadi. Keyin shu mehrga javoban boshqalarga ham shunday mehr beradi. Shamshoda bu jarayonda uning ota-onasi hamda singlisining hissasi katta ekanini aytib o'tdi. Singlisi Jayrona audiosi yo'q kitoblarni opasi bilan o'qidi, she'rlarni esa Shamshodaga yodlashga oson bo'lishi uchun telefonda audio qilib berdi.

Uning bu yutuqlarida ustozlarining ham mehnati bor. Ustozi Kamol Sharifov u haqida shun-


day deydi: “Shamshodada qat'iyat kuchli. “Yosh kitobxon”ga tayyorlanish jarayonida 4 soat uxlab, 20 soat dars qilard edi. O'qilishi qiyin ilmiy kitoblarni ham o'qirdi. Ba'zan hammasini tashlab ketsa arziyadigan charchoqlarni ko'rganman unda, lekin uning irodasi, qat'iyati bunga yo'l qo'ymasdi. Shamshodani bir so'z bilan ham-mamiz uchun hayotiy motivatsiya deya olaman”.

Tengdoshimiz maktab davridan hamma singari bo'lishga harakat qilidi.

Boshqalar singari maktabga bordi. Buxoro davlat universitetining filologiya fakultetiga imtihon topshirib, o'qishga kirdi. Magistratura bosqichini ham adabiyotshunoslik yo'nalishida davom ettirdi. Adabiyotga qiziqishida ota-onasining ham o'rni katta bo'lsa ajab emas. Chunki Shamshodaning otasi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, onasi ham kitobga oshno ayol. “Universitetda ham kursdoshlarim bilan birga dars qilib, kitob o'qir edik. Ular o'qirdi, men eshitar edim” – deydi qahramonimiz.

Shamshoda hozir Buxoro shahridagi 24-ko'rish imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasida targ'ibotchi bo'lib faoliyat olib boradi. O'zi kabi yoshlarni adabiyot olamiga oshno qilmoqda. Bu yil uning mehnatlari, harakatlari yuksak baholalanib, Prezidentimiz farmoniga binoan, “Kelajak bunyodkori” medali bilan taqdirlandi.

**Mashhura NASRIDINOVA,**  
“Yoshlar ovozi” muxbiri



“

MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGI BU IJODIY FAOLIYATDA BARCHA ZARUR VOSITALARDAN FOYDALANGAN HOLDA AXBOROT VA MEDIA MAHSULOTLARNI SAMARALI OLISH, TAHLIL QILISH, TANQIDIY BAHOLASH, TALQIN QILISH, FOYDALANISH, YARATISH VA TARQATISH IMKONINI BERADIGAN BILIM, KO'NIKMA, MUNOSABAT, MALAKA VA AMALIYOTLAR MAJMUYIDIR.



# RAMAZANNING SARTAROSH XONASIDA KITOB O'QIGANGA CHEGIRMA BOR



Iqbol PARDAYEVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

**M**ahallada yoshlar yetakchilari yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish uchun turli loyihalarga qo'l urmoqda. Kimdir mahallada yangi, zamonaviy kutubxona tashkil etsa, yana boshqasi tadbir g'oliblariga kitob sovg'a qilib, yoshlarning mutola-

ga qiziqishini uyg'otish harakati-da.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qanliqo'l tumanidagi "Madaniyat" mahallasi yoshlar yetakchisi **Temur Murodboyev** esa bu borada noodatiy loyihaga qo'l urdi. Gap shundaki, mahalla yetakchisi "Yoshlar yaxshilik yo'lida"

nomli ijtimoiy loyiha doirasida mahallasidagi **yakka tadbirkor, sartarosh Ramazan Xo'jamberganov** bilan hamkorlikda Ramazanning sartaroshxonasida kitob burchagi tashkil etishdi. Sartarosh xizmatidan foydalanishga kelgan mijozlar navbatda turarkan, toki g'ali kelguncha kitob o'q-

sa, sartarosh xizmat haqining 10 foizini chegirma sifatida qaytarib beradi. Ahamiyatlisi, sartaroshxonada televizor va Wi-Fi tarmog'i mavjud bo'lsa-da, ko'pchilik yoshlar kitob o'qishni afzal bilmog'ada.

– *Chegirmadan foydalanuvchilar bir kunda o'rtacha 10–15 nafarni tashkil etmoqda.* – **deydi sartarosh Ramazan Xo'jamberganov.** – Men bu loyiha orqali mahallamiz yoshlari orasida kitobxonlikni targ'ib etishga hissa qo'shayotganimdan xursandman. Loyihaga shunchalar qiziqib ketdimki, ba'zida o'z hisobimdan yangi kitoblar olib, kitob burchagidagi asarlar sonini ko'paytirib qo'yayapman. O'zim ham bo'sh vaqtim mutolaga kirishaman.

Mahalla yoshlar yetakchisining tashabbusi kun kelib mahallada kitob o'qib, "Spark" sohibi bo'ladigan yoshlarni kashf etsa ajab emas.

## “XALQARO MAYDONDA O'ZBEKCHA KONSERT BERAMAN”

**Tug'ilish bu imkoniyat. Inson o'ziga berilgan bu imkoniyatdan samarali va to'g'ri foydalanishi zarur. Albatta, hayot davomida turli to'siqlar, g'ovlarga duch kelishi mumkin, biroq sinovlarda sinalgan inson kelajakda o'z yo'lini topib keta oladi. Bizning qahramonimiz Rigina Nazarova ham hayot sinovlarida toblangan va aniq maqsad yo'lida**

**davom etayotgan iste'dodli yoshlardan.**

**Bolalikdan qo'shiq aytishga qiziqqan, qo'shiqlarni xirgoyi qilishni kanda qilmagan tengdoshimiz bir nechta xalqaro turnirlarda ham g'oliblikka erishgan. Biz bo'lajak yulduzning san'at olamiga kirib kelishi, bu yo'ldagi qiyinchiliklar va orzulari haqida qiziqdik.**

### ILK QADAM

– Onamning aytishlaricha, men bir yoshga yetmasdan televizorga qarab, so'zlarim tushunarsiz bo'lsa-da, qo'shiqlarni xirgoyi qilib yurarkanman, – **deydi Rigina Nazarova.** – Onam bu harakatlarimni ko'rib, meni musiqa maktabiga olib borganlar. 7 yoshimda Yangiyer shahridagi 4-bolalar musiqa va san'at maktabida estrada yo'nalishida o'qishni boshlaganman. Bu yerda ustozim Hasan Xidirovdan musiqa sirlarini o'rgandim. Ilk bor 2012-yil Sirdaryo viloyatida bo'lib o'tgan Mustaqillik bayrami tadbirida qatnashdim. Keyin Yangiyer shahar bayramlarida, davlat tadbirlarida ishtirok eta boshladim. 2020-yil bolalar musiqa va san'at maktabini bitirib, o'qishni Respublika musiqa va san'at kollejida davom ettirdim.

### MAQSAD YO'LIDAGI MASHAQQATLAR

– San'at olamiga kirib kelganimda juda ko'p qarshiliklar bo'lgan. Lekin onamning qo'llab-quvvatlashi sabab men maqsadim yo'lida davom etdim.

14 yoshimda otasiz qolganman. Albatta, bu og'ir tushkunlik holatidan chiqib ketishim oson bo'lmadi. Lekin onamning daldasi, ishonchi sabab men hozir musiqa bilan shug'ullanyapman. Otamdan keyin bizning boshimizga qiyin kunlar tushdi. Onam yolg'iz o'zlarini 4 farzandni voyaga yetkazdi. Bizni kamsitganlar ko'p edi, lekin e'tibor qilmadim va harakatdan to'xtamadim. Har qanday holatda ham aybni inson o'zidan izlashi kerak va saboq chiqarga bilishi muhim. Bu odamlarning gap-so'zlari menga ilhom berdi, kuch olib, o'qishda davom etdim.



### HARAKATLAR MEVASI

– Ko'plab xalqaro va mahalliy tanlovlarda qatnashganman. Masalan, "Zvezdi areni" xalqaro tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritdim. "Yarkiy kraski leta" xalqaro onlayn tanlovi, Minsk shahrida o'tkazilgan "Summer Mood" kabi bir nechta xalqaro tanlovlarda Gran-pri sohibi bo'ldim. Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Iqtidorli bolalar" festivalida oliy o'ringa loyiq topildim. 2021-yil "Botir Zokirov davomchilari" respublika tanlovi hamda "Nihol" davlat mukofoti tanlovining respublika bosqichida qatnashdim.

### KELAJAKDAGI MAQSADLAR

– Professional mutaxassis, xalq artisti bo'lgan, degan niyatim bor. Buning uchun o'z ustimda tinmay ishlashga harakat qilyapman. Ustoz sifatida yangi avlodga musiqa ilmidan saboq berish ham maqsadlarimdan biri.

Endigina 18 yoshga to'ldim, menda armon bo'lmasligi tabiiy. Lekin orzularimdan yana biri Bo'zatov FEST – "Yoshlar ovozi" tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritish. Bu yil Bo'zatov festivalida qatnashdim, lekin omadsizlik sabab g'olib bo'la olmadim.

Yana bir katta orzum xalqaro maydonda sof o'zbek tilida jonli ijroda konsert berishdir. Bu nafaqat men, balki onamning ham orzusi. Onajonimni baxtli ko'rsam, shuning o'zi men uchun eng katta baxt.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

yozi bldi

# TALABA, YOZNI QANDAY O'TKAZYAPSAN?

Yoz – o'quv yili davrida qilingan ishlarni, bilimlarni sarhisob qiladigan, yangi rejalar tuzadigan, sayohat qiladigan va kimlar uchundir miriqib dam oladigan fasl. Hayotda o'z maqsadiga ega, ertasi porloq bo'lishini o'ylaydigan ko'pgina talabalar yozda ham tinib-tinchimaydi, yanada ko'proq bilim olishga, hunar o'rganishga, qo'shimcha darslarga borishga harakat qiladi. Aksariyati oliy ta'limni yakunlamasdan mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashmoqda.

Talabalar bilan suhbatimiz chog'ida ingliz tili-

ni o'rganib, IELTS sertifikatini olish yozdagi eng asosiy maqsadlaridan biri ekanini bilib oldik. Bu sertifikat orqali ular magistraturaga kirishni yoki chet elda o'qishni davom ettirishni maqsad qilganlar. IT bo'yicha kurslarga qatnash ham asosiy rejalaridan biri ekanini ta'kidlashdi. Umuman olganda, intilishi va qiziqishi bor yoshlar uchun Yoshlar ishlari agentligi qoshida, "Najot ta'lim" markazida sifatli darslar tashkil etilgan.

Keling, yoz fasli uchun qanday rejalar qilganligini talabalarning o'zidan eshitamiz.

## Shahobiddin LUQMON, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi



## Umidaxon SOBIROVA, O'zJOKU talabasi




## "QUYOSH BOLALARI"NING QUVONCHI UCHUN

– Yoz – dam olish, do'stlar bilan uzoq kutilgan uchrashuvlar, sayohatlar vaqti. Men barcha rejalarimni erkin amalga oshirish imkoniyatini beradigan bu vaqtni intilqlik bilan kutaman. Yaqinda autizmga chalingan bolaga dars o'tishni boshladim va menda bunday bolalar hayotiga rang olib kirish istagi paydo bo'ldi. Bunday tashxis qo'yilganlarning o'z olami bo'ladi. Yakkalanib qolish yoki faqat o'ziga o'xshaganlar qurshovida yashash daun sindromi va autizmning yanada og'irlashishiga sabab bo'ladi. Bilasizmi, "Quyosh bolalari" deya ta'riflanuvchi daun sindromli bemorlar doim hayotdan xursand ko'rinsa, odamlarga kulib boqsada, ular boshqalarga nisbatan ko'proq mehr-muhabbatga, e'tibor va ko'makka muhtoj. Yoshlikdan san'atga, ranglarga qiziqishim, bunday bolalarga mehrim sabab harakatni allaqachon boshlab yubordim. "Quyosh bolalari"ning quyoshli fasliga quvonch olib kirish kun tartibimning asosiy qismini egallagan. Bolalarning suratlari namoyishi uchun maxsus ko'rgazmalar, fondlar tashkil etish bo'yicha izlanishdaman.

## Nilufar SHARIPOVA, Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

### HAYOTNING HAR ONI QIMMATLI

– 3-kursni tamomlamay turib ishga joylashdim. Hozir Karmana tumanidagi 21-maktabda ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi bo'lib ishlayapman. Shuningdek, ingliz tilini o'rganishni boshladim. Mutaxassisligim – psixologiya sohasi bo'yicha chet el va O'zbekiston tajribalarini solishtirgan holda yangi ilmiy ish uchun harakatni boshlash ta'til davridagi rejalarimdan biridir. Bo'sh vaqtlarimda ijtimoiy tarmoqlarda onlayn efirga uzatib borilayotgan "Osmondagi bolalar", "Najot ta'lim" va shunga o'xshash bir qancha dasturlarni kuzatib boraman hamda "Buyuk va iqtidorli bolalar"ning ota-onalari psixologik markazi nomli Startap tanlovining eng so'nggi bosqichigacha yetib borgan, ammo tugallanmay qolgan loyiham uchun materiallar yig'yapman. Ijodga mehrim bo'lakcha, she'rlar mashq qilib turaman. O'quvchilar va o'zining ta'til davrimni mazmunli o'tkazish maqsadida maktabimizda "Ijodkor o'quvchilar" to'garagini ochdik. Zero, buyuk suratkashlardan biri aytgan ekan: "Butun umr hayotning muhim lahzasini tutishga harakat qildim, holbuki, hayotning har oni muhim ekan". Biz ta'til davridan unumli foydalanib, har lahzani ilimga bag'ishlashimiz lozim.



## Salohiddin SAYDINOV, TATU talabasi



### BU YIL YOZGI TA'TIL BO'LMASA KERAK

– Yoz deganda boshqalar tasavvurida dam olish, sayohatlar jonlanadi. Ammo yozning yarmi o'tdi hamki, universitetimda darslar tugamadi, yakuniy imtihonlar endi boshlanadi. Rejamda universitetda avgust oyigacha o'qish yo'q edi. Yanvar, fevral, mart oyida dam olganimiz uchun yozi bilan o'qiyamiz endi. Agar birorta fanni yopolmay qolsak, deylik 6 kreditli fandan qolib ketsak, 700 ming so'mdan oshiqroq pul to'lab, o'sha fanni qayta o'qiyamiz. Bitta fanni 2 hafta davomida har kuni 3 paradan o'qishni tasavvur qilyapsizmi?! Men uchun bu yil ta'til bo'lmasa kerak. Lekin darslarga qaramasdan, fasl uchun 2 ta reja qilgandim: birinchisi iOS kursiga borish, ikkinchisi ingliz tilini mukammal o'rganish. Hozir iOS bo'yicha kursga qatnayapman.

### SHAROITLAR YETARLI EMAS

– Ta'til vaqtida ko'proq kompyuter texnologiyalari va grafik dizaynerlikni o'rganishni istayman. Ammo qishlog'imiz ancha chekka hududda (Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani Ayritom qishlog'i) joylashgani sababli buning umuman iloji yo'q. Markaz shaharlar ham 75-80 kilometr uzoqlikda. O'rganmoqchi bo'lgan narsangizni ma'lum bir joyda va belgilangan vaqtda o'rganmasangiz, mustaqil shug'ullanish juda qiyin masala. Chunki qishloqlarda og'ir ish bajar-magan paytlaringizda ham tinimsiz harakatda bo'lasiz, bu esa o'z-o'zidan vaqtni "o'ldiradi". Shunday sharoitda yashaganlar buni yaxshi bilishadi. Misol uchun, o'tgan yili adabiyot nazariyasini chuqurroq o'rganish, yozuvchilarning yozish uslublarini ko'rib chiqish va o'zining keyingi yoziqlarimga tayyorlanishni reja qilgandim. Ammo yuqoridagi aytilgan holatlar sabab rejalarimning amalga oshishi cho'zilib ketdi. Shu bois bizing hududga o'xshash joylarda har xil o'quv kurslari va klublarni tashkil etish kerak. Biz tomonlarda yoz oylarida ko'pchilik pul topish uchun o'zini har xil ishga uradi, shu jumladan, men ham. Ammo aytilgan sharoitlar bo'lsa, o'rganishga vaqt topardim.

**Aziz do'stlar, talabalar. Hayot imkoniyatlarga boy, har tomonda maqsadlaringizni amalga oshirishga ko'maklashuvchi qo'llar, tashkilotlar bor. Sizdan biroz qunt bilan harakat qilish talab etiladi, xolos. Hech qanday to'siqaqa e'tibor bermang, shaxsiy hududingizni o'stirish uchun chegaralarni buzib tashlang, vaziyatni o'zgartiring, "qutidan tashqari"da o'ylang. Shu yoz shaxsiy rivojlanishingiz uchun turtki beradigan fasl bo'lsin. Yozni unutilmas qiling!**

Shahribonu RAHMATOVA  
tayyorladi.

# XURRAK TORTMAYSIZMI?

Rashid XO'JAMOV

yumoristik hikoya



**E**rtalabki nonushtani tayyorlayotgan xonimga eri gap qotdi:

– Qizimiz tushmagur ja o'sha xonadonga moslashib ketdi-ya, bir qo'ng'iroq qilay demaydi? Men uning erkali, arazchiligidan xavotir qilardim. Esingdami, 8-sinfigida gapiga quloq solmay, adabiyot darsida daftarga rasm chizib o'tirgani uchun daftarini yirtib tashlagan o'qituvchisining stol ustida turgan hujjatlarini yirtib, sinfdan qochib uyga kelgandi. Maktabga chaqirtirganda rosa xijolat bo'lgandim. Bechora o'qituvchi yig'lab yuborgandi "Endi bu hujjatlarini qanday tog'rilyaman", deb.

– Nimasiga xijolat bo'lish mumkin. O'sha o'qituvchining o'zida ayb. Men qizimga shunday tarbiya berganman: "Jon koyitganga jonningni ber, joningni og'ritganning jonini ol!"

– Sen ahmoq xotinsan.

– Ha, albatta, ahmoq bo'lmasam sizga turmushga chiqarmidim, azizim.

Bu xonim va janoblarning har kungi hango-malari xuddi hozirgiga o'xshash o'ta "nafosatli mulozamat"lardan iborat bo'ladi. Ammo bu jiddiy tortishuvlargacha bormaydi. Qorni qor-boboning qopiga o'xshagan, ko'rinishi va qadam tashlashlari pandani eslatadigan erkak esini tanigan damlarni eslamay qo'yg'an kundan (u bolaligini doim o'rtoqlariga mazax bo'lgani uchun yomon ko'radi) boshlab to hozirgacha qaysidir bir omborxonada hisobchi bo'lib ishlaydi, o'zining ta'бири bilan aytganda, "esini yeb qo'yg'an kundan boshlab" esa shu ayol bilan bir uyda yashaydi.

Xonim esa hech qayerda ishlamaydi. Aniqrog'i, ikki yil oldin to'qqiz yilda o'n sakkiz marotaba ishdan xohishi bilan bo'shab, axiyri, hech qaysi sohada uni tushunadigan odam yo'qligiga ishonch hosil qilgach, o'z-o'ziga "O'lsamam qaytib biror joyda ishlamayman. Jin ursin bu odamlarning hammasini. Yalini kelishsa ham, qo'limni yuvib, qo'ltig'imga artib bo'lganman", deb ont ichdi. Turmush o'rtog'i esa buni ishlaydigan boshqa joyi qolmagani bilan izohlaydi.

Va nihoyat, hozirgina eshikdan otilib uyga kirgan yigirma bir-yigirma ikki yoshlar chamasidagi qiz esa ularni yo'qlab turgan yakka-yu yagona "farishta"lari bo'ladi. U o'n sakkiz kun avval bir qo'shiqchi-shoumen yigitga turmushga chiqqan. O'zi esa rasm chizishni juda qotirmasa ham, bu sohaga qizishi baland edi. Nisbatan yuqori did bilan chizilgan suratlari maktab davrlarida maqtovlarga sabab bo'lgach ona-

si bu iqtidorni Xudoyim unga o'zidan yuqirganiga hammani ishontirdi.

Aytishicha, uning buvisi juda mashhur rassom bo'lgan, afsuski, uning bebaho asarlari muhtojlik sabab sotib yuborilgan yoki yonib ketgan. Xonim ham qizidek kezlari-da kechalari moychiroq yorug'ida rasmlar chizgan, ammo kambag'allik sabab u juda yoshligidan boylarning bolalariga enagalik qilgan. O'z-o'zidan ma'lumki, u asarlardan asar ham qolma-

gan. Janob esa haligacha otasidan qolgan uchto'rt avliyolar portretini avaylab kelayotganiga qaramay, ota avlodida iqtidor egalari borligiga xotinini ishontirilmadi va buning uchun ortiqcha urinmadi ham. Ayol bu mavzudan gap ketmaganda ham, osig'liq turgan suratlariga qarab ko'pincha shunday deydi: "Sening otang bunday san'at egasi bo'lishi mumkin emas, azizim!"

Ha, aytgancha, qiz nega erta tongdan bu uyga kelgani haqida so'z ochmoqchidi, aslida. O'sha qo'shiqchi yigit u o'ylagandek odam bo'lmay chiqibdi. Muttaham, madaniyat nimaligini bilmasmish. Ko'zi yumilibdiki, xurrak otarmish. Tafsilotlar shu yeriga kelganda diqqatini buzmay tinglab o'tirgan ota birdan xoxolab kulib yubordi:

– Sara, sen uni xurrak tortarkan, dedingmi? Hah-hah-hah-haa! Nahotki, sen shunga qo'yib berding-a? O'n sakkiz kun! Bu katta matonat-ku! Og'zini bog'lab qo'yish mumkinmasmidi?

U haligacha o'zini tutolmay kulardi.

– Hayvon! Ha, u hayvon ekan, demak! – dedi ayol siyrak sariq qoshlaridan qiyshiq kamon shaklini hosil qilib.

– Ha, oyi, men u bilan ortiq yashamayman.

Janob ularning suhbatlariga ortiqcha ahamiyat bermay, kiyinib lapanglagancha ishga ketdi. Eshikdan chiqayotib qiziga:

– Sara, qizalog'im, kelganimcha uyingga ketib qolma, qaytishda sen yoqirgan dengiz baligidan tayyorlanadigan ikra olib kelaman.

U qizining diydoylari-ni hazilday qabul qildi, bu ham Saraning bir erkalgidan deb bilib, erta yo'indin o'z oilasiga qaytishiga shubha qilmadi. Ammo vaziyat u o'ylaganday bo'lib chiqmadi.

Sara o'z qarorini o'zgartirmadi: "Undan ko'ra timsohlardan bilan yashaganim afzal, u xurrak torgandayam, qo'shiq aytganday cho'zib xurrak tortadi".

Ayol ham qizining qarorini qo'llab-quvvatladi. "Agar qizim bilan yashamoqchi bo'lsa, o'z kasalini davolatsin". Shunday qilib, Sara o'z uyida avvalgiday erka xonimcha bo'lib yashay boshladi. Bir kuni ayol ko'chadan qog'oz ko'tarib kirib keldi.

– Qara, Sara!

– Nima bu?

– Shahar markazidagi rassomchilik muzeyiga ishchi qabul qilisharkan, mana e'lon, qo'ng'iroq qil. Seni olishadi. Axir, o'z kasbing-ku!

Sara onasi topib kelgan e'lon sharofati bilan ishga kiradi. Haqiqatan ham, o'zi suygan ish. Odamlari ham juda muloyim. O'zi rassomlar ko'ngilchan bo'lishadi, ular xuddi Sara kabi nozik qalb egalari. Ayniqsa, unga chizgan rasmlarini ko'rib, ustozlik

qilishga jon deb rozi bo'lgan yigitni aytmaymizmi?! Juda tarbiyasi, buning ustiga bo'ydoq. Xotini bilan bir yil yashab, uning ijodini, ranglarga muhabbatini tushunmaganligi, ustidan kulganligi uchun ajrashishga majbur bo'lgan. Har gapida "kechirasiz" deydi. "Kechirasiz, mana bu yerda ranglarni yorqinroq berish kerak edi", "Kechirasiz, kechagi shlyapangiz sizga bugungisidan ko'ra ancha yarashgan edi", "Kechirasiz, otam nima ish qiladi degan edingiz?" Axir bu o'ta oliyanoblilik-ku! Bir kuni yigit unga antiqa taklif bildirib qoldi: "Kechirasiz, biz turmush qursak, qanday bo'larkin?"

Sara yigitning taklifi haqida onasiga aytadi.

– Ishqilib, bu ham anavinaqa vijdon-siz emasmikin? Sening guldaygina umringni o'ylayman-da, qizalog'im. Senga o'shanday kazzoblarmas, shahzodalar munosib!

– Yo'q, oyi! Bu safar men baxtimni topganimga aminman. Hatto u mendan ham farosatliroq ko'rinadi. Har gapida "kechirasiz" deydi, oyi, qarang, qanday samimiyat!

– Unda ancha aqli zako ko'rinadi.

Sara oilasining, aniqrog'i, onasining tongday toza duolari bilan rassom bilan turmush qurdi. To'y marosimiga atab uyishtirilgan kecha ham ularning ta'blari kabi juda fayzli va huzurbaxsh o'tdi. Kecha tugab, mehmonlar ketdi. Sara shaharning eng sara yigitlaridan biri bilan oila qurganiga ishonolmay yettinchi osmonda uchardi. Yigit har bir xatti-harakatini o'ta odob bilan bajarar, chiroqni o'chirishdan oldin ham qizning maylini so'raradi. Chiroq o'chgach, yigit Saraning qulog'iga sekingina shivirladi:

– Kechirasiz, siz xurrak tortmaymizmi?

– Yo'q, bundan sira tashvishlanmasligingiz mumkin!

– Kechirasiz, men biroz xurrak tortishim mumkin, aybga buyurmaysiz...



## VATAN

Qora tuproq, jon tuproq,  
Bug'doy tuproq, non tuproq,  
Oltin tuproq, kon tuproq,  
Vatan-ov.

Qumloq tuproq, yel tuproq,  
Toshloq tuproq, sel tuproq,  
Botir tuqqan el tuproq,  
Enam-ov.

Alpomish-u Go'ro'g'li,  
Arslon o'g'li, Sher o'g'li,  
Afrosiyob Er o'g'li,  
Bobom-ov.

Taqir tuproq, bo'z tuproq,  
Sho'rxok tuproq, tuz tuproq,  
Muqaddas, aziz tuproq,  
Momom-ov.

Beling bukri turong'il,  
Do'mbiram, navong bulbul,  
Kuying aylar elni sel,  
Nolam-ov.

Yosh qolgan yetimning zori,  
Onamning yodgor tumori,  
O'tdi-ya otam xumori,  
Bo'tam-ov.

Urug'ungan yer tuproq,  
Yig'lab to'ydim ter tuproq,  
Olding, qaytib ber, tuproq,  
Otam-ov...

Qoratoving qovoq uygan,  
Cho'llaringda tovon kuygan,  
Qalpog'ingni bobom kuygan,  
Vatan-ov!

**Allayar DARMENOV,**

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Qorafaqalpo'giston Respublikasi Kegs'yl tumani

E'tiboringizga havola qilinayotgan ushbu kitob matematika fanidan eksklyuziv testlar to'plamidir. Kitobdagi testlar yangi, zamonaviy va DTM standartlari asosida tuzilgan.

Maxsus testlar abituriyentlar, maktab o'quvchilari, repetitor ustozlar, matematika olimpiadachilari va fanga bee'tibor bo'lmagan barcha uchun mo'ljallangan. Testlar to'plamida savollar qaytarilmagan va tubdan yangi misol va masalalar bor.

Yurtimizda talaygina matematika fanidan testlar mavjud, to'g'rimi?

Ha, juda ko'p, lekin siz hali bunday davomli, yangi, zamonaviy va Uchinchi Renessans poydevoriga xizmat qila oladiganini ko'rmagan-siz.

Mazkur kitob nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul yetkaziladi.

Murojaat uchun: +99893 454 24 02



**Mirjalol  
HAMROYEV,**  
kitob muallifi

**Maxsus 1-qism kimlar uchun?**

- Abituriyentlar;
- maktab o'quvchilari;
- ustozlar;
- matematika olimpiadachilari;
- matematikaga bee'tibor bo'lmagan barcha uchun.

Mazkur kitobning eksklyuziv 1-qismi yoshlari-mizning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshiradi, degan umiddamiz.

Zero, biz Al-Xorazmiy, Beruniy, Ulug'bek kabi ajdodlarimizga munosib avlod tarbiyalash harakatidamiz.

## O'ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASINING FARG'ONA VILOYATI VAKILLIGI JAMOASI

Butun O'zbekiston xalqini yaqinlashib kelayotgan  
Qurbon hayiti bayrami bilan qutlaydi.

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin!  
Xonadoningizdan qut-baraka sira arimasin!

Reklama va uquq asosida

**YOSHLAR  
OVOZI**

Bosh muharrir:  
**Hamza  
ABDULLAYEV**

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Muhammadshukur  
MUHAMMADJONOV**

Musahhihlar:  
**Rashid XO'JAMOV,  
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil II-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ryxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyot kompyuter markazida teriladi va shifrlanadi. Tahririyot manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharaq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchisi, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma tabaq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi keltirilgan narxda. Buyurtma - G-755, Adadi - 10598. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

